



Evolution of the development of volleyball sports (history, development, dun championships Olympiad games)

M. MAMATOVA¹

Uzbekistan State Physical Education and sports university

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2021

Received in revised form

15 December 2022

Accepted 20 January 2022

Available online

15 Fabray 2022

Keywords:

history of the first volleyball,
mass sports, healthy life,
modern volleyball,
championships, modern
volleyball rules.

ABSTRACT

In this article, the history of the development of volleyball sports for many years is considered. The article analyzes the current trends in the regulation of sports rules and how this sport is regulated in international sports legislation.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss1/S-pp84-90>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Voleybol sport turining rivojlanish evolyutsiyasi (tarixi, rivojlanishi, jaxon chempionatlari olimpiada o'yinlari)

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola voleybol sport turning rivojlansh tarixi bir necha yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, bugungi kunda bu sport turning er yuzida shuningdek mamlakatimizda qay darajada rivojlangan va uning zamonaviy qonun qoidalari to'g'risida so'z yuritilgan.

Калит сўзлар:

ilk voleybol tarixi, ommaviy sport, sog'lom xayot, zamonaviy voleybol, chempionatlar, zamonaviy voleybol qonun-qoidalari.

Эволюция развития волейбольного вида спорта (история, развитие, чемпионаты мира Олимпийские игры)

АННОТАЦИЯ

В данной статье, рассматривается история развития волейбольного спорта на протяжении многих лет. Анализируется, современные тенденции регулирования

Ключевые слова:

история первого волейбола, массовый

¹ Uzbekistan State Physical Education and sports university, Chirchik city, Uzbekistan
E-mail: mamatovam78@gmail.com

спорт, здоровый образ жизни, современный волейбол, чемпионаты, современные правила волейбола.

спортивных правил и насколько этот вид спорта регулируется в международном спортивном законодательстве.

Ishning dolzarbligi: O'zbekiston hukumati so'ngi yillarda mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Insonning ma'naviy va jismoniy jihatdan kamolotga etishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati beqiyos. Shu sababdan O'zbekistonda sport davlat siyosatining muxim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sog'lom avlodni tarbiyalash uchun jismoniy tarbiya va sportni yuksak ilmiy saviyada takomillashtirish lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning sayi-harakatlari natijasida O'zbekiston sportchilari ham jahon sport maydonlarida yuksak natijalarga sazovor bo'lishda hamda katta muvoffaqiyatlar qozonishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va ommaviy sportni va olimpiya harakatini rivojlantirish, chora tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 3-iyundagi PQ-3031 sonli qarorida mamlakatimizda ommaviy sportni va olimpia xarakterini rivojlantirish, olimpizm g'oyalarini keng targ'ib etish, respublikamizda olimpiya sport turlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining keng qatlamini ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etish mamlakat sportchilarini Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon va osiyo chempionatlari hamda boshqa yirik xalqaro sport o'yinlarida muvoffaqiyatli qatnashishlarini ta'minlash, maqsadida qator ishlar olib borilmoqda. Hozirda voleybol sporti eng ommaviy sport turlari qatoriga kiradi. Bu sport turi dastlab paydo bo'lish davrlari XVIII asr oxirlariga to'g'ri keladi.

Tadqiqotning maqsadi. Voleybol sport turini qay darajada rivojlanganligini aniqlab, turli usullar yordamida (mashg'ulot, musobaqa) bu sport turini yana ham ommalashtirish va omma o'rtasida sportni targ'ib qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti. Voleybol 1895 yilda Amerika qo'shma shtatlarining Massachusetts shtatidagi Xoliok shahrida yosh xristianlar ittifoqini jismoniy tarbiya bo'yicha rahbari Vilyam Morgan tomonidan yaratilgan. U voleybol o'yinini oddiy, ko'p mablag' sarflamasdan tashkil etishni ko'zda tutib yangi o'yinning qoidalarini ishlab chiqdi. O'yin nomini avvaliga mintonett deb nomladi. 1896 yilda Springfild shahridagi kollej direktori doktor Alfred Xalsted bu o'yinga "voleybol" deb nom berdi. "Voleybol" inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "parvoz qiluvchi to'p" degan ma'noni bildiradi. 1897 yilda tadbir etilgan ba'zi bir o'yin qoidalari quyidagicha edi: Maydoncha chegaralari 7,6 x 15,1 sm. To'urning o'lchamlari 0,65 x 8,2 m, balandligi 198 sm. To'pning vazni 340 g, aylanasi 63,5 – 68,5 sm. O'yinchilarning soni esa chegaralanmagan edi. 1895-1920 yillar voleybol o'yini rivojlanishining birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'yinning boshqa davlatlarda vujudga kelishi va rivojlanishi quyidagicha keltirilgan: 1900 yil – Kanada, 1908 yil – Kuba, 1909 yil – Puerto-riko, 1910 yil – Peru, 1917 yil – Braziliya, Urugvay, Meksika, Osiyoda 1900-1913 yillar – Yaponiya, Xitoy, Filippinda, 1914 yil – Angliya, 1917 yil – Fransiya davlatlarida rivojlana borgan.

Tadqiqotning vazifasi:

Voleybol sport turi paydo bo'lganidan boshlab hozirgacha bo'lgan o'zgarishlar Voleybolning mamlakatlarda qay darajada rivojlanganligi va uning ommaviy sportga aylanib ulgurganligi.

Hozirgi zamonaviy voleybolda eng rivojlangan mamlakatlar, Jaxon chempionatlari va Olimiyada o'yinlari.

Voleybol sobiq ittifoqda 1920-1921 yillarda o'rta Volga (Qozon, Nijniy Novgorod) da tarqala boshladi. 1922 yildan boshlab voleybol Vseobuch (Umumiy harbiy tayyorgarlik) tarkibiga kiritildi. Moskvada voleybol bilan muntazam shug'ullanishga san'at va teatr vakillari kirishdilar. 1923 yilda tashkil etilgan «Dinamo» jamiyati sportning boshqa turlari bilan bir qatorda voleybolni ham targ'ib qila boshladi. Xuddi shu yillarda voleybol Uzoq Sharqda – Xabarovsk va Vladivostokda paydo bo'ldi. 1925 yildan esa Ukrainada ham rivojlana boshladi. SSJIda jismoniy tarbiya va sportning keyingi taraqqiyoti uchun RKP/b/MK 1925 yil 13 iyul qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda ommani tarbiyalashning samarali usullaridan biri bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish zarurligi uqtirib o'tildi.

Markaziy qo'mita qarori voleybolning tobora taraqqiy etib borishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sovet voleybolchilari o'z oldilariga mamlakatda voleybolni ommalashtirish, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, texnika va taktikani mukammallashtirish, o'yinchilarni har tomonlama jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish kabi qator vazifalarni qo'ydilar. Voleybol hamma erda tarqala boshladi. Shu bilan bog'liq ravishda musobaqalarning yagona qoidalarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

1925 yilning yanvarida Moskva jismoniy tarbiya kengashi voleybol bo'yicha musobaqalarning birinchi rasmiy qoidalarini tuzib tasdiqladi. To'rning balandligi – ayollar uchun 2 m 20 sm va erkaklar uchun – 2 m 40 sm qilib belgilandi. Ayollar jamoalarida o'yin 15 x 7,5 o'lchamli maydonchada o'tkaziladigan bo'ldi. 1926 yilda Moskvada yangi qoidalar asosida birinchi musobaqalar o'tkazildi. 1927 yildan voleybol bo'yicha Moskva birinchiligi muntazam ravishda o'tkazila boshladi. «Sobiq Ittifoqida» birinchi bosmadan chiqarilgan voleybol bo'yicha maxsus adabiyot 1926 yilda paydo bo'ldi va u «Voleybol va mushtlar jangi» deb nom olgan edi. Uning mualliflari S.V.Sisoev va A.A. Mark edi. 1926 yilda yana bir qator muhim voqealar bo'lib o'tdi, ya'ni voleybol Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashining o'yinlar sho'basi voleybol bo'yicha musobaqalarning yagona qoidalarini tasdiqladi. SHu yillarda voleybol faqatgina Moskvada emas, balki Ukrainada, shimoliy Kavkazda, Kavkazortida, Uzoq Sharq va O'rta Volga o'lkalarida ham keng tarqaldi. «SSJI» voleybolda taalluqli muhim voqealardan biri 1928 yilning avgustida birinchi Butunittifoq spartakiadasi vaqtida o'tkazilgan Ittifoq birinchiligi bo'ldi. Unga Moskva, USSJ, Shimoliy Kavkaz, Kavkazorti Federatsiyasi va Uzoq Sharq o'lkasining erkaklar va ayollari qatnashadilar. Moskva ayollar jamoasi va Ukrainaning erkaklar jamoasi g'olib chiqdilar. Birinchi Butunittifoq spartakidasida voleybolchilarning uchrashuvlari musobaqa qoidalarining alohida bandlarini yagona tartibda izohlash uchun imkon berdi. Shuni aytib o'tish kerakki, bu erda ayollar jamoalari birinchi bor normal o'lchovli maydonchalarda (18/9 m) o'ynaydilar.

Sovet Ittifoqining turli mintaqalarida voleybol taraqqiyotida xilma-xil yo'nalishlar yuzaga kela boshladi. Ukrainaliklar jamoali o'yin taktikasini va fidokorona himoyani namoyish etdilar, Moskvaliklar kuchli hujumchi ekanliklari bilan ko'zga tashlandilar. Uzoq Sharqliklar esa past uzatilgan to'p bilan hujum qilishdek ajoyib yangilik olib keldilar. Shuni ta'kidlash kerakki, terma jamoalarning Butunittifoq spartakiadasiga tayyorlanishi voleybolning joylarda ommaviy ravishda rivojlanishiga turtki bo'ldi. Butunittifoq spartakiadasi arafasida o'tkazilgan Ukraina birinchiligida jumhuriyatning viloyat shaharlaridan 21 jamoa ishtirok etdi. Kavkazortining eng kuchli jamoasini aniqlash uchun

Boku, Tiflis va Yerevan shaharlarining jamoalararo uchrashuvlari o'tkazildi. Xuddi o'sha 1928 yilda Moskvada doimiy hakamlar uyushmasi tashkil etildi. Voleybol taraqqiyotida maktab o'quvchilarining spartakiadasi ham (1929) katta ahamiyatga ega edi. Bu spartakiada qatnashchilaridan ko'pchiligi keyinchalik voleybol ustalari bo'lib etishdilar. Shaharlararo musobaqalar soni anchagina ortdi, bu esa turli texnik usullarning paydo bo'lishiga, voleybol taktikasining rivojlanishiga, o'yinchilar jismoniy tayyorgarligining o'sishiga olib keldi.

1931 yilda BLKEI tashabbusi bilan mamlakatimizga jismoniy tarbiyaning asosi bo'lgan «Mehnat va mudofaaga tayyor» Butunittifoq kompleksi ta'sir etildi. Bu tadbir voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini yuksaltirishgagina emas, balki yoshlarni voleybol mashg'ulotlariga jalb etishga ham imkoniyat yaratdi. Voleybolning ommaviy rivojlanishi va keng targ'ib qilinishida ko'pgina madaniyat va istirohat bog'larining maydonchalarida o'tkazilgan musobaqalar katta ahamiyatga ega edi.

Moskvadagi markaziy madaniyat va istirohat bog'ining 20 ta maydonchasi atrofida tomoshabinlar yig'iladilar. O'tkazilayotgan o'yinlar faqat moskvaliklar uchun emas, balki chet ellik mehmonlar uchun ham yaxshigina maktab edi. Shuning uchun 30-yillarda Olmoniyada (Germaniya) «Voleybol – rus xalq o'yini» deb nomlangan voleybol bo'yicha musobaqa qoidalari kitobcha holda chop etildi. Turli shaharlarning eng kuchli jamoalari orasida birinchiliklar o'tkazib turildi. 1931 yilda Xarkovda Moskva, Dnepropetrovsk va maydon egalarining erkak va ayollar jamoalari uchrashdilar. 1932 yildan voleybol barcha katta spartakiadalarining dasturiga teng huquqli sport turi sifatida kiritildi. Shu sababdan voleybol bo'yicha butunittifoq musobaqalarining har yili muntazam o'tkazib turilishi haqidagi masala ko'tarildi. 1932 yilning bahorida Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashi qoshida voleybol seksiyasi tashkil topdi va uning tarkibiga A.Potashnik (rais), V.Oskolkov, M.Vilgrat, YU.Bagon, V.Kryuk va boshqalar kiritildilar. 1932 yildan avval «Voleybolchilarning Butunittifoq bayrami» deb atalgan «Sovet Ittifoqi» birinchiliklari muntazam o'tkazila boshladi. Voleybol bo'yicha SSJI birinchiligi ilk bora Dnepropetrovsk shahrida 1983 yilning 4-6 aprelida bo'lib o'tdi. Musobaqalarda ayollar jamoasi (Moskva, Dnepropetrovsk, Xarkov, Boku, Minsk) va 5 ta erkaklar jamoasi ishtirok etdi.

O'yin qoidasi; Dastlabki o'yin qoidalari bir muncha sodda bo'lib, hozirgi zamonaviy voleybol qoidalari bilan juda katta farqlidir. O'yin uch yoki besh partiyadan iborat bo'lib, har bir partiya 15 ochkogacha davom etadi. Agar ochkolar 15:15 bo'lsa, o'yin 17 ochkogacha davom etadi. So'nggi partiya (3- va 5-) da o'yin hisobi "taym-brek" asosida olib boriladi. Ya'ni o'yindagi har bir harakat natijasiga qarab to'pni o'yinga kiritish huquqi qaysi jamoada bo'lishidan qat'iy nazar jamoaga mag'lubiyat yoki g'alaba keltirishi mumkin. Hal qiluvchi partiyada o'yin 2 ochko farq qilguncha davom etadi. O'yin jarayonida texnik malakalarni bajarishdagi xatolar: – To'pni o'yinga kiritishda: agar irg'itilmasdan to'g'ridan to'g'ri "qo'ldan" urilsa; – To'pni o'yinga kiritishda belgilangan chegara chiziqlarini bosish, to'p irg'itilsayu, lekin urilmasdan tanaga tegsa va hokazo; – To'pni uzatishda: to'p kaftga tegsa – ilib otilsa, ikki qo'l kema-ket tegsa yoki ham tanaga, ham qo'lga tegsa va hokazo; – Zarba berishda: tana va tana qismlarini to'rga tegib ketishi (9 metrli belgilangan chegara oralig'ida), qo'nish vaqtida oyoq o'rta chiziqdan butunlay o'tib ketsa, raqib tomonidagi to'pga tegilsa va hokazo. Himoyada: – To'pni qabul qilishda: agar to'pni uzatishdagi xatolar bo'lsa; – To'siq qo'yishda: zarba berishdagi xatolar bo'lsa, ochko olishdan yoki to'pni o'yinga kiritish huquqidan mahrum qiladi.

Shuningdek hozirgi zamonaviy voleybolda, erkaklar uchun to'ring balandligi 2,43 sm va ayollar uchun 2,24 sm etib belgilangan. O'yin 9x18 m li maydonchada o'ynaladi. Bir jamoa 6 kishidan iborat bo'lib, 2 jamoa o'ynaydi. O'yinchilar to'pni qo'l bilan urib, raqib maydoniga tushirishga harakat qiladilar. Koptokni uch urishda raqiblar tomoniga o'tkazish lozim. Musobaqa 3 yoki 5 qura o'ynaladi. Voleybol Xalqaro federatsiya (FIVB)1947 yil asos solingan bo'lib, hozirda 180 dan ortiq mamlakat a'zo bo'lgan. Shuningdek voleybol 1964 yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan, 1949 yildan boshlab Jahon birinchiliklari o'tkazilgan. Quyida voleybol bo'yicha 2021 yilda o'tkazilgan jaxon chempionatlari va Olimpiyadada g'olib bo'lgan eng kuchli davlatlar natijalari keltirilgan. Albatta bu voleybolning er yuzida qanchalik keng tarqagani va qanchalik ommalashganining yaqqol misoli bo'la oladi.

1-rasm


Daraja	Davlatlar	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1	Sovet ittifoqi	4	1	2	7
2	Braziliya	3	0	3	6
3	Rassiya	2	1	0	3
4	AQSH	2	0	2	4
5	Kuba	1	3	1	5
6	Italya	1	3	1	5
7	Germanya	1	0	0	1
8	Polsha	0	1	0	4
9	Yaponiya	0	2	0	2

2-rasm


Davlatlar	Oltin	Kumush	Bronza	jami
URS	7	4	1	12
BRA	5	3	2	10
USA	3	3	4	10

JPN	3	3	3	9
CHN	3	1	2	6

3-rasm



4-rasm



Xulosa: Voleybol O‘zbekistonda 1920 yildan boshlab birinchi Farg‘ona vodiysida keyinroq Toshkent viloyatida o‘ynab boshlangan. O‘zbekiston Respublikasi 1991 yil Xalqaro Voleybol federatsiyasiga, 1992 yil Osiyo Voleybol konfederatsiyasiga a‘zo bo‘lib kirdi. O‘zbekistonda bu sport turi bilan 700 mingdan ortiq kishi muntazam shug‘ullanadi. Hozirgi kunda bu sport turi ommaviy sport turlari qatoriga kirib ulgurdi. Har bir maktab, litsey, kollej va oliy ta‘lim muassaslarida voleybol bilan shug‘illanish uchun etarli shart

sharoitlar yaratilgan. U maktablarda ommaviy tus olgan, jismoniy tarbiya bo'yicha dasturning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беляев А.Б., Савин М.Б. Волейбол. // Учебник. ISBN 978-5-98724-059-5. 2009. – 360с.
2. Волков Л.П. Теория И методика детского и юношеского спорта. – Киев: Олимпийская литературе, 2002.-294 с.
3. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. М.: Терра-Спорт, 2006-272 с.
4. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её приклад / Л.П. Матвеев. –Изд. Четвёртойе, испр. I дор.-СПБ.[I dr.]: Lan, 2005.-377, [1]s.: il, tabl.; 21sm.; ISBN 5-8114-0585-05 ; 3000.
5. Фурманов А.Г. Подготовка волейболистов. Минск, МЕТ, 2007.-329s. w.w.w. Vikeepediya
6. Khanturaev, N. (2020). THE ROLE OF NATIONAL ACTION AND MOVEMANT GAMES IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL-AGE CHILDREN. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2020(2), 37-44.